

“Uzbekistan Airways” AJ Rostov va Krasnodarga parvozlar bekor qilinganini ma’lum qiladi

2022 24 February

Rossiya Federatsiyasining Rostov-na-Donu (Platov) va Krasnodar shaharlari xalqaro aeroportlarining faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi munosabati bilan, aviakompaniya quyidagi rejalashtirilgan muntazam qatnovlar bekor qilinganligini ma’lum qiladi:

- HY-9647/9648 Toshkent-Rostov-na-Donu-Toshkent yo‘nalishida – 25, 27-fevral va 2-mart kunlari;
- HY-9687/9688 Toshkent-Krasnodar-Toshkent yo‘nalishida – 27-fevral va 1-mart kunlari;
- HY-3687/3688 Toshkent-Krasnodar-Toshkent yo‘nalishida – 2-mart kuni.

Bekor bo‘lgan parvozlar yo‘lovchilari aviachiptalarining to‘liq qiymatini chipta sotib olingan joyda qaytarib olishlari yoki parvozlar qayta tiklanganidan keyin boshqa sanaga bepul qayta bronlash huquqiga egadirlar.

To‘g‘ri tushunishingizga umid qilamiz.